



## OGAHİY SHE'RIYATIDA MIFOLOGIK OBRAZLAR

---

*Kazakboyeva Parvina Alisher qizi*

*Toshkent davlat sharqshunoslik unversiteti*

*Sharq sivilizatsiyasi va tarixi fakulteti 2-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Ogahiy lirikasidagi mifologik obrazlarning badiiy tahlili va ularning o'zbek mumtoz she'riyatida ko'chma ma'noda qo'llanishi yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** miflar, obraz, bayt, folklor, afsona, "Gavharmu ekan ayo".

## MYTHOLOGICAL IMAGES IN OGABI'S POETRY

*Kazakboyeva Parvina Alisher qizi*

*Tashkent state university of oriental studies*

*2-course student of the faculty of Eastern civilization and history*

**Abstract:** In this article, the artistic analysis of mythological images in Ogabi's lyrics and their metaphorical use in Uzbek classical poetry are highlighted.

**Key words:** Myths, image, verse, folklore, legend, "Gavharmu ekan ayo".

## KIRISH

O'zbek mumtoz adabiyotining yorqin vakillaridan biri bo'lgan, Xorazm diyorining farzandi Muhammad Erniyozbek o'g'li Ogahiy tariximizda o'chmas iz qoldirgan. U o'zbek mumtoz adabiyotida Alisher Navoiydan keyingi o'rinda turuvchi shaxsdir. Asarlari badiiy saviyasi, mavzu qamrovi, janr turfaligi jihatidan ham hajmiga munosib. Shuning uchun ham hamma davrda Ogahiy ijodi namunalariga adabiyotshunos olimlarimiz katta e'tibor bilan qarashgan. Ogahiy she'riyatida inson taqdiriga, hayoti mohiyatiga munosabati yaqqol o'z ifodasi topadi. Bu bilan bog'liq ravishda komil inson masalasi bosh g'oyaga aylanadi.

## ASOSIY QISM

Ogahiy lirikasida komil insonni tarbiyalashdan tashqari, obraz, timsol, tasviriy vositalarni qo'llash ham uchrab turadi. Ogahiy o'z she'rlarida mifologik obrazlardan foydalanib, o'z qarashlari va g'oyalarini bayon etgan. Miflardan yaxshilik va yomonlik to'g'risida tasavvurlar mujassamlangan. Shu sababli ko'plab obrazlar yaxshilik va yomonlik o'rtasida kurash tariqasida gavdalanadi.



Ogahiy g‘azallarida mifologik obrazlardan biri pari obrazidir. Pari obrazi xalqning qadimiy tasavvurlari bilan bog‘liq. Uning paydo bo‘lishi, o‘zbek she‘riyatiga kirib kelishi, ma’no qirralarining rivojlanishi bevosita xalq mifologiyasiga borib taqaladi.

Pari haqidagi mifik tasavvurlar genezi O‘rta Osiyoda yashagan qadimgi dehqonlarning hosildorlik g‘oyasi bilan bog‘liq agrar kultlar va go‘zallik tushunchasiga aloqador estetik qarashlari zamirida shakllangan. Pari obrazi, odatda, antropomorf – insoniy qiyofada gavdalanadi. Go‘zallik parilarga xos yetakchi belgi hisoblanadi. Ular nihoyatda suluv, juda go‘zal qizlar yoki barkamol yigitlar qiyofasida tasvirlanadi. Ogahiy lirikasida parining ko‘rinmaslik xususiyatini aks ettiruvchi baytlar mavjud. Shoir ma’shuqa go‘zalligini ko‘rsatish uchun uni farishta, hur, g‘ilmon kabi ruhlar olami vakillari bilan birgalikda keltiradi. Bundan ko‘zlangan maqsad esa ma’shuqaning go‘zalligini bo‘rttirib ko‘rsatishga qaratilgan:

*Yo farishta, yo g‘ilmon, yo paridir ul, yo ‘qsa,  
Qaysi dilbar etmushdur elni muncha zor uynab.*

Xalqda pariga yo ‘liqqan insonning telba (Devona) bo‘lishi to‘g‘risidagi qarashlar mavjud. Mumtoz adabiyotda esa telbalik – devonalik bu ishqning natijasi deb qaraladi.

*Ko ‘zimga jilvagar ul yormu ekan ayo,  
Va yo pari manga duchor ekan ayo.*

Ogahiy pari obrazi orqali keng ma’noda yor husn-u jamolini, oshiq qalbidagi botiniy kechinmalarni ifodalagan.

Ogahiy o‘z she‘rlarida gavdalandirgan yana bir mifologik obraz ajdarhodir. Ajdarho “O‘zbek tili izohli lug‘atida forscha so‘z bo‘lib, afsonaviy katta ilon ekanligi, ko‘chma ma’noda qonxo‘r, yovuz odamga nisbatan nafratni ifodalashi aytiladi. Ajdar turli xalqlar og‘zaki ijodida qanotli og‘zidan o‘t purkaydigan ikki va undan ortiq boshi ilon qiyofasidagi afsonaviy maxluq obrazi sifatida talqin qilinadi. U ko‘pincha xazinalarni qo‘riqlaydi. Shuning uchun xalqda “Ilon qirq yil yashasa, ajdar bo‘ladi” degan qarash ham mavjud.

Ogahiyning “Gavhrmu ekan ayo” g‘azalida eng murakkab hisoblangan hayvoniy miflardan hisoblangan ajdarho obrazi quyidagicha tasvirlangan:

*Gisularimu ul yuz ustidamakon etgan,  
Ganj uzra va yo ikki ajdarmu ekan ayo.*

Aksariyat xalq folklorlarida ajdar xazinaga qo‘riqbonligidan tashqari, qurbonlik talab qiluvchi maxluq sifatida ham gavdalanadi. Ushbu she‘rning ikkinchi qismida ham ajdar xalq og‘zaki ijodidagi kabi xazina qo‘riqlovchi sifatida



ifodalangan. Baytda ajdarning aynan mana shu xususiyatiga urg‘u berish orqali ma’shuqa go‘zalligi vasf qilingan. Bu baytda yorning yuzini xazinaga, sochini esa ajdarga o‘xshatilgan.

*Zulfiga tushdi ko‘zim boqmoq tilab ruxsoriga,  
Vah, netaykim, ganj istab ajdahoga uchradim.*

Ogahiyning ushbu baytida ham ma’shuqa ruxsorini ajdar qo‘riqlab turgani haqida fikr ketadi. Baytda oshiq ma’shuqani ruxsorini ko‘rmoqni niyat qilgan ekan, uning nigohi xazinaga emas, ajdarhoga tushadi. Natijada oshiq ma’shuqa ruxsorini ko‘ra olmaydi. Yor ruxsori, ya’ni xazinaga erishish uchun esa ajdarho mone’lik qiladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Ogahiy ijodini hali ko‘p o‘rganish zarur. Chunki u hayotda ham, ijodda ham o‘zini to‘liq namoyon qila olgan. Ogahiy lirikasidagi mifologik obrazlarning qo‘llanilishi ma’shuqa ta’rifini qiyoslash bo‘rttirish orqali uni vasf etadi. Qahramonning jasoratini, sabr, qanotini badiiy estetik jihatidan aks ettirishda yordam beradi.

#### ADABIYOTLAR

1. Ogahiy. Asarlar. VI jildlik. I jild. Devon. Toshkent. G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. 1971. 390 b.
2. Ogahiy. Asarlar. VI jildlik. II jild. Devon. Toshkent. G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. 1972. 390 b.
3. Maxmaraimova Sh. O‘zbek tili teomorfik metaforalarining qisqacha konseptual lug‘ati. Toshkent. Cho‘lpon. 2018. 100 b.